

BIBLIOGRAFIK FAOLIYAT ICHKI TUZILISHINING ELEMENTLARI

Matmuradova Malika Isayevna,

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti

"Kutubxona-axborot faoliyati" kafedrası

katta o'qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada bibliografik faoliyat ichki tuzilishining elementlari, bibliografik faoliyatning turlari, hujjatlarning tarkibi turlari, bibliografiyalashning bosqichlari, bibliografik qo'llanmani tuzish bosqichlari, spravka-bibliografik xizmat ko'rsatish, og'zaki yoki yozma shaklda bibliografik xizmat ko'rsatish, bibliografik axborotni ishlab chiqish va iste'molchiga yetkazish yo'llari, bibliografiyashunoslikda bibliografik mahsulotlarni klassifikatsiyalashda asosiy belgilari haqidagi ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: obyekt, subyekt, hujjat, shakl, maqsad, hujjat-iste'molchi, bibliografik faoliyat, bibliografik xizmat, tayyorlov, analitik, sintetik, yakunlovchi, annotatsiyalash, xizmat ko'rsatish, so'roqlarni bajarish, yetkazish yo'llari, bibliografik axborot, bibliografiyalash, klassifikatsiyalash.

Annotation. This article provides information on the structural elements of bibliographic activity, its various types, the different structures of documents, the stages of bibliographic processing, and the steps involved in compiling a bibliographic guide. It also covers reference-bibliographic services, both oral and written forms of bibliographic assistance, methods for developing and delivering bibliographic information to users, and the main criteria used in the classification of bibliographic products within bibliographic science.

Keywords: object, subject, document, form, purpose, document-user, bibliographic activity, bibliographic service, preparatory, analytical, synthetic, final, annotation, service provision, query processing, delivery methods, bibliographic information, bibliographic processing, classification.

Bibliografik faoliyat-bu AKM va ARMLar, ilmiy-texnika axboroti organlari, nashriyotlar va hujjatlar aloqa yo'llari tizimidagi boshqa jamaot institutlari tomonidan ilmiy-yordamchi, ishlab chiqari, tarbiyaviy, targ'ibotchilik va boshqa maqsadlarida bibliografik axborotga bo'lgan ehtiyojni har tomonlama qondirishga xizmat qiluvchi hujjatli axborot faoliyati sohasidir.

Bibliografik faoliyat bibliografik faoliyatning maqsadi, subyektiv, obyektiv (predmet), jarayonlari, vositalari va natijalari kabi asosiy tarkibiy qismlarni o'z ichiga oladi.

Bibliografik faoliyatning maqsadi kutilayotgan natijaning xayoliy qolish sifatida subyektning ongida joylashgan va shakllanadigan faoliyatni kuzatuvchi sifatida keladi. Shu sababli bibliografik faoliyatning maqsadlari uning subyekti bilan aloqada va birgalikda ko'rib chiqiladi.

Bibliografik faoliyatning bosh, markaziy, tizimni hosil qiluvchi tarkibiy qismi uning subyektlaridir. Ayni subyekt butun tizimning xarakterlantiruvchi asosiy kuchidir. U maqsadli shakllantiradi va yuzaga keltiradi, jarayonlarni amalga oshiradi, vositalarni ishlab chiqadi va foydalanadi. Faoliyatning natijalari (bibliografik maxsulot)ni tuzadi.

Bibliografik faoliyatning bosh subyekti-bibliografik axborot ishlab chiqish, iste'molchiga yetkazish va bibliografik axborotdan foydalanishni tashkil etish bilan shug'ullanuvchi mutaxassis-bibliografdir.

Bibliografik faoliyatning sifati va samaradorligi bibliografning amaliy tayyorgarligi va nazariy bilim darajasiga bog'liq. Shu sababli ham bibliograf mutaxassislarni tayyorlash va qayta tayyorlash (malakasini oshirish) tizimi muhim rol o'ynaydi va unga alohida e'tibor beriladi.

Bibliograf kasbiy xotirasi rivojlangan, bibliografik ma'lumotlarni eslab qolishga o'rgangan, chidamli, mantiqiy fikrlash doirasi rivojlangan, tez qaror qabul qila oladigan, manbalar doirasini yaxshi bilangan, ularning biridan ikkinchisiga tez o'ta oladigan bo'lishi; umumilmiy va o'z mutaxassisligi bo'yicha bilimlarni chuqur egallagan, bilimni amalda tadbiq qila oladigan, bibliografik qidirish olib bo'la oladigan, manbalardan foydalana oladigan, obyektiv olamni idrok etuvchi ongli shaxs bo'lishi zarur.

Bibliografik faoliyatning maqsadlari-bibliografik jarayonlarda subyekt sifatida bibliograf tomonidan keltirib chiqariladigan ichki va tashqi shart-sharoitlarga ko'ra xilma-xildir.

Umumiy yakuniy maqsad-jamiyat a'zolarining axborot ehtiyojlarini qondirishga ta'sir etishdir. Bu maqsad bibliograf tomonidan mustaqil maqsad sifatida (qidirib topish, xabar berish, tavsiya etish) ham tushunilishi mumkin. Bu maqsad ichida bibliografik faoliyatning yo'nalishi va turli sohalari bilan bog'liq bo'lgan yanada aniqroq maqsadlar ajralib chiqadi.

Xususan olganda, bibliografik faoliyatning hamma tarkibiy qismlar va ularning ichki bo'linmalari ham maqsadlar sifatida anglanishi mumkin.

Bibliografik faoliyatning ikkinchi sube'kti-bibliografik faoliyat bilan vaqtincha shug'ullanuvchi olim, o'qituvchi, yozuvchi, muxbir-axborot iste'molchilardir. Ular bibliografik axborotni iste'mol qilish bilan birga o'zi ish faoliyati davomida bibliografik axborot manbasini (ya'ni ishlarida foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatini) tuzadilar.

Bibliografiyaga keng ma'noda qaraganda bibliografiyashunoslik, ya'ni bibliografiya sohasida ilmiy ish bilan shug'ullanuvchi ilmiy xodim, bibliografiya fanlarining o'qituvchilar ham bibliografik faoliyatining 3- subyektlari bo'la oladilar.

Bibliografik faoliyatning ikki asosiy tarkibiy qismi-hujjat va axborot iste'molchisidan tashkil topuvchi hujjatlar aloqa yo'llari tizimi obe'kt sifatida keladi.

“Hujjat iste'molchi” tizimi yagonadir, shu bilan birga turli bibliografik jarayonlarda hujjatlar va iste'molchilar turlicha vazifalarni bajaradilar.

“Hujjat”-sotsial axborotni tarqatuvchisi sifatida bibliografik

Qo'llanmalar tuzish(bibliografiyalash) jarayonining bevosita obyektidir. Hujjatning tarkibi turi–tumandir: kitoblar va kichik risolalar, gazetalar, jurnallar, kino-foto materiallari, magnit tasmlar, tasviriy san'at asarlari, mikrotasvirlar va xakozalar.

Obyekt–bizdan tashqarida, bizning ongimizga bog'liq bo'lmagan holda mavjud bo'lgan borliq yoki mavzu.

Bibliografik faoliyat hujjatning qaysi turidan qat'iy nazar bibliografik qayta ishlash maqsadiga ko'ra hujjatlar uch asosiy belgisi: mazmuni, shakli, maqsadi va kitobxonlik doirasi e'tiborga olinib ajratiladi.

Mazmuniga ko'ra hujjatlar ajratilganda biron-bir tayyor klassifikatsiya jadvaldan foydalaniladi. Masalan, Kutubxona-bibliografik klassifikatsiya jadvali, predmet jadvali.

Hujjatlarni shakliga ko'ra klassifikatsiyalashda esa vaqtli bo'lmagan (kitoblar va risolalar, varaqalar), vaqtli va davomli nashrlar (jurnallar, gazetalar, byulletenlar, varaqalar), audiovizual materiallar(kino-fotomateriallar, mikrofilmlar, diafilmlar, tasviriy san'at asarlari) va boshqalar bo'lishi mumkin.

Nashr xillari bo'yicha esa 8 ta asosiy xili ajratiladi: ilmiy adabiyotlar, ilmiy-ommabop nashrlar, ishlab chiqarish adabiyotlari, o'quv adabiyoti, spravka nashrlari, siyosiy-ommabop adabiyot, axborotli nashrlar, badiiy adabiyotlar.

Axborot iste'molchilari-bibliografik faoliyat sohasida bibliografik xizmatning yashirin va to'g'ridan to'g'ri (bevosita) obyektini hisoblanadilar (ya'ni bibliografik xizmatda ishtirok etmay bibliografiyadan foydalanadi, ikkinchidan, ish faoliyati davomida o'zi bibliografik axborotni ya'ni bibliografik ro'yxatni yaratadi tuzadi).

“Hujjat-iste'molchi” tizimining asosiy tarkibiy qismlari bibliografiya nuqtai nazaridan sifatli, lekin bir xilda muhim rol o'ynaydi. Ular o'rtasida doimo axborot aloqasi mavjud va bu axborot aloqasi bibliografik faoliyatning haqiqiy obyektini hisoblanadi.

Demak, “hujjat-iste'molchi” tizimi bibliografiyaning bevosita (to'g'ridan-to'g'ri) va bevosita obyektini tashkil qiladi.

Bibliografik faoliyat ikkita asosiy va bir-biriga uzviy bog'liq bo'lgan jarayonlar-hujjatlarni bibliografiyalash va bibliografik axborot iste'molchilariga bibliografik xizmat ko'rsatishni o'z ichiga oladi.

Bibliografiyalash-hujjatlarda qayd etilgan bibliografik axborotni bibliografik qo'llanma shaklida ishlab chiqish (tayyorlash) jarayonidir.

Bibliografiyalash jarayoni.a) birinchi hujjatlar massivi yoki oqimini qidirish yoki xabar berish maqsadida bibliografik qayta ishlab bibliografik axborot sifatida aks ettirish. b) aniq talab va ehtiyojlarga bog'liq holda bibliografik axborotni qayta ishlash va unga baho berish ishlarini o'z ichiga oladi.

Bibliografiyalashning ikkinchi bosqichi bir vaqtning o'zida bibliografik xizmat ko'rsatishga ham xosdir. Bibliografik xizmat ko'rsatishning o'ziga xos jarayoni-bu bibliografik axborotni iste'molchilarga bevosita yetkazishdir. Bibliografiyalash bibliografik xizmat ko'rsatishning zarur bibliografik asosini yaratib beradi.

Bibliografiyalash, bibliografik xizmat ko'rsatishning asosi-bibliografik qidirishdir.U bibliografik axborotning qidirish vazifasi bilan bog'liq va uning amalga oshirilishini texnologik tomonidir. Bibliografik qidirishning o'ziga xos xususiyati shundaki, unda hujjatning o'zi emas, balki hujjat haqidagi ma'lumot qidiriladi va iste'molchiga shu ma'lumot, ya'ni bibliografik axborot yetkaziladi.

Hujjatlarni bibliografiyalash bir tomondan hujjatli obyektlarning hajmi, shakli va mazmuniga; ikkinchi tomondan esa tuzilayotgan bibliografik axborotning aniq maqsadi va kitobxonlik darajasiga bog'liq bo'ladi.

Har qanday bibliografik qo'llanmani tuzish to'rt asosiy bosqichda amalga oshiriladi.

–tayyorlov (mavzu tanlash va uni o'rganish, qo'llanmaning prospektini tuzish, adabiyotlarni aniqlashni o'z ichiga oluvchi);

–analitik (aniqlangan hujjatlarni umumiy tahlil qilish, bibliografik tavsiflarni tuzish, annotatsiyalash yoki referatlash, indekslash va predmetlash ishlarini o'z ichiga oluvchi);

–sintetik (tahlil qilingan hujjatlar ichida tanlash va ularni gruppalash jarayonini o'z ichiga oluvchi);

–yakunlovchi (qo'llanmaning spravka-metodik apparatini tuzish,unga muharrirlik qilish va uni rasmlashtirish ishlari bajariladi) bosqichlar.

Bibliografik faoliyatning ikkinchi jarayoni-bu bibliografik xizmat ko'rsatishdir.

Bibliografik xizmat ko'rsatish-bibliografik axborotni iste'molchiga yetkazish jarayonidir. Bibliografik xizmat ko'rsatish ikki tartibda : spravka-bibilografik xizmat ko'rsatish,bibliografik axborot bilan ta'minlash tartibida ko'rsatiladi.

Spravka-bibliografik xizmati iste'molchining axborotga bo'lgan so'rog'ini qabul qilib olish va uning savoliga javob berishdan iborat, Spravka–bibliografiya xizmatida albatta so'roqning bo'lishi zarur. Bu xizmat “iste'molchining so'rog'i-bibilografning javobi” munosabati mavjud bo'lib, birinchisi xizmatning asosi, ikkinchisi yakuniy natijasi hisoblanadi.

Bir martalik so'roq-axborotga tushgan og'zaki yoki yozma shaklda, tez javob beriladigan so'roqdir.

So'roqqa javob ham yozma yoki og'zaki shakldagi spravka, rad javobi yoki uslubiy konsultatsiya (maslaxat) dan iborat bo'lishi mumkin.

Spravka (ma'lumot)-bir martalik so'roqqa berilgan javob, ya'ni axborotdir.

Rad javob-bu bir martalik so'roqqa javob berish imkoniyati yo'qligining sabab ko'rsatilgan javobdir.

Uslubiy konsultatsiya (maslahat) –bu zarur axborotni olish yo'llarini ko'rsatuvchi va maslaxat beruvchi bir martalik so'roqqa berilgan javobdir. Bunda axborot talabchisi axborotni qidirishi uchun biron manbaga yo'naltirilishi, unga boshqa kutubxonaga murojaat etish tavsiyasi berilishi mumkin.

Spravka-bibliografiya xizmatida spravka va uslubiy maslaxat berish, xizmat ko'rsatishning ijobiy shakllari hisoblanadi. Ularning har ikkalasi ham undagi axborotning xususiyatiga ko'ra bibliografik va faktografik bo'lishi mumkin.

Bibliografik spravkalar uch asosiy turda bo'ladi: 1) mavzuli spravkalar. 2) kutubxona-manzili spravkalar. 3) bibliografik ma'lumotlarni aniqlovchi spravkalar.

Ularning har biri bibliografik qidirish natijasida topilgan bibliografik axborotni o'z ichiga oladi.

Mavzuli spravka kitobxon tomonidan so'ralgan mavzu bo'yicha hujjatlar ro'yxatidan iborat bo'ladi. Masalan, "2025 yil-Atrof –muhitni asrash va "yashil" iqtisodiyot yili" mavzusida adabiyotlar so'ralgan bo'lsa, bu holda mavzu bo'yicha yig'ilgan, ma'lum bir tartibda joylashtirib kitobxonga berilgan adabiyotlar ro'yxati mavzuli spravka hisoblanadi.

Kutubxona-manzili spravka-aniq bir jamg'armada (kutubxona jamg'armasida, arxivda, ilmiy-texnika axborot markazi bo'lgan muassada, kitob dukanida) istemolchi so'ragan hujjatning aniq saqlanish joy yoki mavjudligi bibliografik manbalar (bibliografik ko'rsatkichlar, kutubxona kataloglari, kartotekalar, elektron katalog va boshqalar) yordamida aniqlangan spravka, ya'ni iste'molchi tomonidan tushgan so'roqqa berilgan rasmiy bibliografik ma'lumot-axborotdir. Masalan Abu Rayhon Beruniyning "Hindiston" asarini kutubxonada bor-yo'qligini so'rab kitobxon murojaat qilganda navbatchi bibliograf u hujjatni kutub-xonaning alifbo katalogi yordamida qidirib, uni bor yoki yo'qligini aytib, kitobxon so'rog'iga javob beradi.

Bibliografik ma'lumotlarni aniqlovchi spravka iste'molchining so'rog'ida noto'g'ri ko'rsatilgan yoki tushirib qoldirilgan bibliografik tavsif elementlarini topish yoki aniqlash bilan bog'liqdir. Masalan, kitobxon "Shabnam soyasida" romanini so'rab murojaat qildi yoki ehtimollar nazariyasi haqida kitob so'radi. Birinchi holda u asar muallifining nasl-nasabini yodidan chiqargan. Bu holda bibliograf har qanday kutubxonada yuritilishi lozim bo'lgan "Badiiy adabiyot sarlavhalari kartotekasi"

yordamida asarning muallifini aniqlaydi, so'ngra bu romanning kutubxona fondida bor yoki yo'qligi haqidagi ma'lumotni alifbo katalogi yordamida qijirib aniqlanadi va topilgan javob-spravka kitobxonga beriladi. Ikkinchi holda esa bibliograf qidiruvni dastlab sistemali katalogga tuzilgan "alifbo-predmet ko'rstkichi"dan boshlaydi, uning yordamchi ehtimollar nazariyasiga oid qanday nashrlar kutubxona fondida borligini aniqlab, sistemali katalogdan aynan shu masalaga oid kitoblarni qidirib topadi va ularning ro'yxatini kitobxonga beradi. Bu holda ham ikki xil spravka-ham bibliografik ma'lumotlarini aniqlovchi spravka, ham kutubxona manzili, ya'ni aynan bir hujjatni kutubxona fondida bor-yo'qligini aniq aytib beruvchi spravka bajariladi. Demak, bu ikki spravka-bibliografiya xizmati ko'p hollarda birgalikda bajariladi, birini bajarishga ikkinchisi yordam beradi.

Faktografik spravka-faktlar, raqamli ma'lumotlar, sanalar va xokazolar haqidagi ma'lumotlarni beradi. Bunday faktografik so'roqlar kitobxonlardan ko'pdab tushib turadi. Bunday so'roqlarni soni bajarilishini ta'minlash uchun kutubxonalarda faktografik kartoteka yuritilishi maqsadga muvofiqdir, ayniqsa, shu kutubxona joylashgan o'lka hayotining hamma masalalari bo'yicha faqat va raqamlar, voqea-hodisalarning bo'lib o'tgan joyi va vaqti haqida ma'lumotlarni o'zida jamlagan bunday kartoteka faktografik so'roqlarni so'zsiz bajarilishini ta'minlaydi. Masalan, Xorazm viloyat Az-Zamaxshariy nomidagi AKMga kelgan kitobxon Xivadagi "Ichon qal'a davlat muzey-qo'riqxonasi" me'morchilik yodgorligining qachon qurib bitkazganini so'radi. Agarda kutubxonada yuqorida aytilgan faktografik kartoteka bo'lmasa, bu so'roqni bajarish uchun kutubxona xodimlari yoki bibliograflar Xiva tarixiga oid kitoblarni ko'rib chiqishlar zarur bo'ladi.

Bu ko'p vaqt va mehnat talab qiladi, kitobxon bunday uzoq vaqt kuta olmasligi mumkin. Shunday hollar bo'lmasligi uchun har qanday kutubxonada, ayniqsa, viloyat universal ilmiy kutubxonalarida faktografik kartotekaning yuritilishi faktografik spravkalarni bajarishga to'liq yordam beradi va yuritilishi maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Kitobxon so'rog'iga beriladigan ijobiy javobning biri bu uslubiy maslaxatlar. Uslubiy maslaxat ham bibliografik va faktografik turlarga bo'linadi.

Bibliografik maslaxat-bu ma'lum hujjatli axborot manbalari (bibliografik qo'llanmalar, spravka nashrlari, darsliklar va boshqalar) dan foydalanish bo'yicha maslaxatlar.

Faktografik maslaxat-so'roqni bajarishda yordam bera oladigan aniq bir kishiga, boshqa AKM yoki muassasaning manziliga ko'rsatma beradi. Masalan, Toshkent viloyati "Turon" nomidagi AKMga kitobxon meyoriy-texnik hujjat so'rab murojat qiladi. Bu holda kutubxona bibliografi meyoriy-texnik hujjatlar Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasida to'liq yig'ib borilishini aytib, shu kutubxonaga murojat qilishini maslaxat beradi.

Yuqorida keltirilgan spravkalarining hammasi har qanday kutubxonada ya'ni AKM va ARM, tarmoq oliy o'quv yurtlari ARMLarda bajariladigan spravkalardir, ya'ni spravka bibliografiya xizmati davomida bu spravkalarining birortasi (kitobxondan tushgan so'roqqa qarab) bajarilishi mumkin.

Yuqorida ko'rsatilgan javoblarning turlari kutubxona muassasalarida kitobxonlarga spravka –bibliografiya xizmati ko'rsatish bo'yicha ishning hisob birligi hisoblanadi.

Bibliografik axborot bilan ta'minlash kutubxona sharoitida iste'molchiga uning so'rog'isiz yoki doimiy so'roqlari bo'yicha bibliografik axborotni muntazam yetkazib turishdir.

So'roqsiz bibliografik axborot bilan ta'minlashning asosiy shakllari: a) kutubxonaga yangi kelgan adabiyotlar byulleteni. b) kutubxonada va undan tashqarida o'tkaziladigan (radio, televideniye orqali beriladigan, vaqtli matbuotda bosiladigan) adabiyotlar obzorlari, shuningdek, v) kutubxonada tashkil qilinadigan "Axbort kunlari", "Mutaxassis kunlari", "Bibliografiya kunlari" va shu kabi tadbirlar.

Uzoq muddatli so'roqlar asosida bibliografik axborot bilan ta'minlashning muhim shakllaridan biri bibliografik axborotni uning iste'molchisiga tanlab tarqatish tartibida yetkaziladigan axborotni tanlab tarqatish (ATT) tizimidir.

Axborotni tanlab tarqatish(ATT) tizimining o'ziga xos xususiyatlari:

ATTning abonentlari bibliografik axborotga kuchli ehtiyoj sezuvchi kichik jamoalar, yetuk olimlar va mutaxassislar bo'la oladi;

-Abonentlarning mavzuli so'roqlariga bibliografik axborot beriladi;

-Iste'molchilarga bibliografik axborot aniq bir belgilangan vaqtda muntazam yetkazib beriladi;

-ATT tizimi abonentlarni bibliografik axborot bilangina emas, balki yana birlamchi hujjat (yoki uning nusxasi) bilan ham ta'minlay oladi;

-ATT tizimida bibliografik axborot qayta ishlash va yetkazishda bibliografik jarayonlarni avtomatlashtirish va mexanizatsiyalash-tirishning texnik vositalaridan foydalaniladi;

-ATTning muvaffaqiyatli borishi uchun iste'molchi bilan tizim o'rtasida o'zaro qayta aloqaning bo'lishi shart. Bu aloqa tizimi ishining sifati va samaradorligini oshirishga qaratilgan bo'ladi.

Bibliografik faoliyatning vositalariga faoliyatning usullari, bibliografik axborotni ishlab chiqarish va iste'molchiga yetkazish yo'llari texnika vositalari kiradi.

Bibliografik faoliyatning usullari. Bibliografik faoliyatning turli jarayonlarida turlicha usullar qo'llaniladi. Bibliografiya-shunoslikda hujjatlarni bibliografiyalash usullariga ko'proq e'tibor beriladi. Bibliografik faoliyatning har ikki asosiy jarayonining qo'shib ketishi tufayli bu asosiy usullar bibliografik xizmat ko'rsatishga ham xosdir.

Bibliografiyalash jarayonining usullarini bibliografiyalashning xarakteri va maqsadga ko'ra ikki guruhga:

–analitik (tahlil qiluvchi) va sintetik (sintez qiluvchi-oldingi bosqichda olingan natijalarga umumlashgan xulosa qilish)usullariga bo'lish mumkin.

Bibliografiyalashning analitik usuliga:

1) hujjatning asosiy mavzusini,rasmiy va mazmuniy xususiyatlarini yutuq va kamchiliklarini,yutuq va kamchiliklarini, maqsad va kitobxonlik doirasini aniqlash maqsadida umumiy tahlil qilish;

2) hujjatlarni bibliografik tavsiflash;

3) hujjatlarni annotatsiyalash va referatlash;

4)indekslash va predmetlashtirish, ya'ni hujjatning mazmunini predmet ruknlari yoki biron-bir klassifikatsiya jadvalining shartli belgilari yordamida ifodalash kiradi.

Keyingi uch ishning natijasi bibliografik yozuvda birlashtiriladi, bibliografik yozuvlarni tuzish bibliografiyalashning analitik usulidan sintetik usuliga o'tishni ta'minlaydi,shu sababli ikki usulda unga birday qaralishi mumkin.

Sintetik usuliga:

1) bibliografik tahlil qilingan hujjatlarni keyingi bibliografik qayta io'lash uchun aniqlash;

2) oldindan belgilangan belgilari bo'yicha hujjatlarni tanlash;

3) bibliografik qo'llanmada bibliografik yozuvlarni gruppalash ishlari kiradi.

Bu usullar dialektik jixatdan bir-biri bilan o'zaro bog'langan , ish jarayonlari ma'lum darajada bir vaqtda bajariladi, bir biriga o'tadi.

Bibliografik xizmat ko'rsatishning usullari. Bibliografik faoliyat usullari bibliografik axborotning asosiy ijtimoiy vazifalari bilan bog'langan holda bibliografik xizmat ko'rsatish doirasiga ham taalluqli bo'lgan uch asosiy usulini ajratish:

1) hujjatlarni identifikatsiyalash (ya'ni bibliografik axborot hujjat haqida yetarli ma'lumot bera oladigan darajaga yetkazish) (bu bibliografik axborotning qidirish vazifasini amalga oshirish vositasi sifatida);

2) hujjatlar to'g'risida xabar berish (bibliografik axborotning xabar berish vazifasini amalga oshirish vositasi sifatida);

3) hujjatlarni tavsiya qilish usuli (bibliografik axborotning baholash vazifasini amalga oshirish vositasi sifatida).

Bibliografik axborotni ishlab chiqish va iste'molchiga yetkazish yo'llari.Ular ichida eng muhim-bibliografik mahsulot, ya'ni turli-tuman bibliografik qo'llanmalar (bibliografik nashrlar, kitob ichi, maqola ichi, jurnal ichi bibliografik ro'yxatlar, katalog va kartotekalar, mexanizatsiyalashgan va avtomatlashtirilgan hujjatlarli axborot qidiruv tizimi)ni yaratish.

Bibliografik mahsulot bir vaqtning o'zida bibliografik faoliyatning bevosita natijasi va muhim vositasidir. Aniqroq aytganda, bibliografik mahsulot hujjatlarni birlamchi bibliografik qayta ishlash jarayonining yakuniy natijasi, bibliografik axborotni aniq ehtiyoj va talablarga muvofiq ravishda qayta ishlash jarayonining vositasi va natijasi va nihoyat, bibliografik axborotni iste'molchiga yetkazishning asosiy vositasidir.

Bibliografik axborotni tayyorlash va tarqatishda radio va televideniye muhim rol o'ynaydi. Radioda adabiyotlar targ'iboti kitoblarning bibliografik obzori shaklida olib boriladi. Televideniye dasturlarida turli ommabop ko'rsatuvlar- "Sayohatchilar klubi", "Hayvonot olamida", "Tirik tabiat", "Musika bo'stoni", "Olam va odam", "Tibbiyot olamida", "Yovvoyi tabiat" va boshqa ko'rsatuvlarda shu masalalarga oid adabiyotlar tavsiya qilinadi. Biroq, radio va televideniye orqali bibliografik axborot bilan ta'mindan tajribasi, bu ish uslublari kengaytirishni va takomillashtirishni talab qiladi.

Bibliografik faoliyatning texnika vositalari. 70-yillarda bunday vositalarga yozuv mashinkasi kirar edi, xolos. Keyingi 25-30 yil ichida ilmiy texnika taraqqiyoti bibliografik faoliyatga qat'iy kirib keldi. Avvalo u bibliografik jarayonlarni mexanizatsiyalash vositalarini, turli perfokartalarda, keyinroq hujjatlarning nusxasini ko'chiruvchi apparatlar va nihoyat, elektron hisoblash mashinkalari va hozirgi nusxa ko'chirish va ko'paytirish texnikasini olib kirdi.

Bibliografik faoliyatning yaqin kelajakdagi rivojlantirilishi va takomillashtirishya, uning samaradorligi va sifatini oshirish, uni avtomatlashtirish, kompyuterlashtirish, yangi nusxa ko'paytirish texnikasini keng qo'llash asosida texnika vositalari bilan ta'minlanishiga bog'liqdir.

Hozirgi elektron hisoblash vositalari EHM xotirasida juda ko'p bibliografik ma'lumotlar massivini saqlash imkoniyati mavjud. Bu mashinalarning yangi, xotirasi bir necha marta orttirilgan turlari ishlab chiqilmoqda. Bu bilan bibliografik faoliyatni avtomatlashtirishdagi cheklanishlar bartaraf etiladi.

Bibliografik faoliyatning natijalari. Bibliografik faoliyatning natijasi bibliografik faoliyatning tuzilishini yakunlovchi tarkibiy qismidir. Boshqa tarkibiy qismlarning hammasi shu natijani olishga yo'naltirilgan. Umuman faoliyatning natijasi-bu amalga oshgan, oshirilgan maqsaddir. Bibliografik faoliyatning maqsadi qanchalik turli-tuman bo'lsa, uning natijasi ham ko'p sonda va turli tumandir.

Bibliografik faoliyatning yakuniy maqsadi-insonning axborot talablarini qondirishga yordam berishdir. Shunga ko'ra bibliografik faoliyatning oxirgi natijasi ham bu ehtiyojlarni amaliy qondirishga qaratilgandir.

Bibliografiyalash va bibliografik xizmat ko'rsatishning hamma yo'nalishlari, sohalari, shakllari va usullariga xususiy maqsad va xususiy natijalar xosdir. Masalan, bibliografiyalash jarayonining bevosita umumiy natijasi bibliografik qo'llanmalar tizimi (bibliografik mahsulot), bibliografik xizmat ko'rsatishning natijasi esa iste'mol-

chilarning bir martalik so'roqlariga bibliografik spravka, uslubiy maslaxat yoki rad javobi shaklidagi ijobiy yoki salbiy javob berish bilan xizmat etishdir.

Bibliografik mahsulot, yuqorida aytganimizdek, bibliografiyalash va axborot bibliografik xizmat ko'rsatishning natijasi va vositasidir.

Bibliografik faoliyatning bevosita muhim va ahamiyatli natijasi ekanini bibliografik mahsulotning turli klassifikatsiyasi nuqtai nazaridan ko'rib chiqish lozim.

Bibliografik qo'llanmalarining turlari klassifikatsiyasi katta ilmiy. O'quv-ma'rifiy, hamda uslubiy ahamiyat kasb etadi. Uning yordamida ko'p sonli turli-tuman bibliografik mahsulotlarni ilmiy asosida sistemalashtirish va ularni o'rganish imkonini beradi.

Bibliografiyashunoslikda bibliografik mahsulotlarni klassifikatsiyalashda 4 ta asosiy belgisi chegara qilib olingan.

- a) bibliografik qo'llanmalarining kitobxolik doirasi;
- b) bibliografiyalash obyekti-hujjatning mazmuni va maqsadi, shakli;
- v) bibliografiyalash uslublarining o'ziga xos tomonlari;
- g) bibliografik qo'llanmalarining o'z shakli

Bibliografik mahsulotning turli tuzilishi bibliografiyaning turli tuzilishi yoritiladigan mavzuda o'rganiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Библиографияшунослик: дарслик / И.Ж. Юлдошев, Т.Байтураев, Ғ.Нарзуллаев, Ҳ. Маматраимова. –Тошкент, 2022.–236 б.
2. Mahmudov, M.X. Umumiy bibliografiya: o'quv qo'llanma / M.X.Mahmudov, G.Ziyodullayeva.–Toshkent: Aloqachi, 2020. –200 b.
3. Маматраимова, Ҳ. Библиография тарихи: ўқув қўлланма / Ҳ.Маматраимова.– Тошкент, 2008.– 82 б.